

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 0178868



SOVETLARNING 1920-1930 YILLARDA O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN KO'CHIRISH SIYOSATI, UNING MAQSAD VA MOHIYATI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Yusupova Lutfiya Ravshanovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,

"Tarix" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Yermetov Avaz Abdullayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

T.f.d. professor

Annotatsiya. Maqolada Sovetlarning 1920–1930-yillarda O'zbekistonda, xususan, Farg'ona vodiysida amalga oshirgan aholini ko'chirish siyosati o'rganildi. Ushbu siyosatning maqsadi va mohiyati, shuningdek, uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik oqibatlari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqotda ko'chirish siyosatining huquqiy-me'yoriy asoslari, mintaqaviy xususiyatlari va iqtisodiy sabablariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqola O'zbekiston tarixi, Sovet davrining migratsiya siyosati va Farg'ona vodiysining demografik rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматривается политика переселения населения, проводившаяся советской властью в Узбекистане в 1920-1930-е годы, в частности в Ферганской долине. Изучаются цели и сущность данной политики, а также её социально-экономические и демографические последствия. Особое внимание уделено правовым и нормативным основам политики переселения, её региональным особенностям и экономическим причинам.

Статья представляет собой важный научный источник для изучения истории Узбекистана, миграционной политики Советского периода и процессов демографического развития Ферганской долины.

Abstract. The article examines the population resettlement policy implemented by the Soviets in Uzbekistan in the 1920s and 1930s, particularly in the Fergana Valley. It explores the objectives and essence of this policy, as well as its socio-economic and demographic consequences. Special attention is given to the legal and regulatory foundations of the resettlement policy, its regional characteristics, and economic motivations.

This article serves as an important academic resource for studying the history of Uzbekistan, Soviet-era migration policies, and the demographic development processes of the Fergana Valley.

Kalit so'zlar: Sovet Ittifoqi, ko'chirish siyosati, Farg'ona vodiysi, kollektivlashtirish, sanoatlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, demografik rivojlanish, huquqiy asoslar.

Ключевые слова: Советский Союз, политика переселения, Ферганская долина, коллективизация, индустриализация, социально-

экономические последствия, демографическое развитие, правовые основы.

Key words: Soviet Union, resettlement policy, Fergana Valley, collectivization, industrialization, socio-economic consequences, demographic development, legal foundations.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jahon xaritasida alohida o'rin egalladi. Bu mustaqillik bizga har bir sohada ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu jumladan, tarixchilar oldida bajarilishi kerak bo'lgan ko'plab vazifalar bor. Bugungi kunda o'tmish tariximizni haqqoniy yaratish va uni kelajak avodga sof holatda yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lmoqdamiz.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixshunosligi fani ilmiy yutuqlarga erishilib, ortda qolgan yillar davomida gayriilmiy talqin qilingan yoki sohtalashtirilgan tarixiy voqealarni holisona va haqqoniylik tamoyillari asosida tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek "...o'z tairixni bilmaydigan, kechagi kunini nutgan millatning kelajagi yo'q"[1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 27 - iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, "O'zbekistonning yanggi tarixi" rukni ostida 3 kitobning nashr etilishi tarix fani taraqqiyotida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi"da ham mustabit sovet tuzumi davrini keng yoritish zarurligi alohida ta'kidlandi [2].

O'tmish tariximizni chuqur o'rganib xolisona baholash bugungi kunning muhim talabidir. Mustaqillikka erishganimizdan bugungi kunga qadar tarixchi olimlar tomonidan o'tmish tairixiga oid ko'plab ma'lumotlar ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, O'zbekistonda sovetlarning yuritgan siyosati, uning oqibatlari, quloqlashtirish, kollektivlashtirish, surgun tarixi muammolari xolisona yoritib kelinmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki sovetlarning O'zbekistonda olib borgan aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlari masalasi sovet hamda mustaqillik davri tadqiqotchilarining e'tiboridan chetda qoldi.

Shuningdek, O'zbekistonning aholisi eng zich joylashgan hududi hisoblangan Farg'ona vodiysida 20 - 30 - yillarda sovetlar tomonidan olib borilgan aholini ko'chirish siyosati alohida yoritilmagan. O'sha davr ziddiyatlarga boy bo'lib, uning mohiyatini chuqurroq o'rganish, mazkur mavzuni ilmiy tadqiq qilish, Farg'ona vodiysidagi ichki ko'chirishlar hamda tashqi ko'chirishlar oqibatida qishloq aholisining qismati, taqdiri qay holatda bo'lganligini ochib beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati agrar siyosatni to'g'ri tashkil etish, iqtisodiy islohotlarni yanda chuqurlashtirish va kengaytirish yo'lida sovetlar davri tarixidan nazariy, ilmiy va hayotiy jihatdan muhim xulosalarga asoslanib ish tutmoqda. O'tmishdagi xato va nuqsonlarni takrorlamaslik, xususan,

boshqaruvning ma'muriy - buyruqbozlik usulidan voz kechib, demokratik tamoyillarni keng qo'llash, dehqonlarning manfaatlari bilan birinchi o'rinda hisoblashish, qishloq taraqqiyoti va farovonligi uchun zarur bo'lgan chora tadbirlar tizimini takomillashtirish yo'lida sovetlarning aholini ko'chirish siyosati va amaliyoti tajribasidan saboq olish, uni e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan ham mazkur mavzu nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga doir adabiyotlarni xronologik jihatdan quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin. 1. Sovet hukumronligi davrida chop etilgan abiyotlar. 2. Mustaqillik davrida yaratilgan adabiyotlar. Ushbu maqolani yoritishda birinchi guruhga kiruvchi nashrlar tahlil qilindi.

Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar tahriri shuni ko'rsatadiki, sovetlarning O'zbekistonda 1920 - 1930 - yillarda olib borgan aholini ko'chirish siyosati mavzusi alohida tadqiq qilinmagan bo'lsada, yangi yerlarning o'zlashtirilishi umuman olganda qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liqligi tufayli shu jarayonlar yoritib berilgan asarlarning ayrimlarida bu masala eslatib o'tilgan. Aholini ko'chirish siyosati haqidagi dastlabki ma'lumotlar ana shu davrda e'lon qilingan qonun hujjatlari hamda gazeta va jurnallardan olish mumkin. O'sha davr partiya va davlat arboblarning nutqlari, risolalarida aholini ko'chirish masalasi aks etgan. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak XX asrning 20 - 30 - yillarida yangi yerlarni o'zlashtirilishi, dehqon xo'jaliklarining ko'chirilishi, ijobiy tadbirlar qatoriga kiritilgan. Bu siyosatning salbiy jihatlari haqida hech narsa yozilmagan.

Sovet davrida nashr etilgan hujjatlar to'plamlarida ham aholini ko'chirish siyosatiga tegishli ayrim hujjatlarni uchratish mumkin. Masalan, hujjatlar to'plamlarining birida 1928 - yil 15 - dekabrda SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining IV - chaqiriq 4 - sessiyasida qabul qilingan "Yer tuzish va yerdan foydalanishning umumiy asoslari haqida"gi qarori joy olgan. Uning 4 - bandida aholini ko'chirish siyosatining maqsad va vazifalari, ko'chirish tadbirlarining tashkiliy jihatlari, ko'chirilganlarga beriladigan imtiyozlar, ularga yer ajratib berish tartibi va me'yori ko'rsatilgan [3].

O.B.Jamolov tahriri ostida nashr etilgan hujjatlar to'plamida VKP (B) Markaziy Komiteti O'rta osiyo buyirosining 1927 - yil 8 - 10 oktyabrdagi "Qishloqlar va ovullar masalasi haqida" qarori o'rin olgan. Uning mavzuga doir yangi sug'orish yerlari deb nomlangan XI bandida agrar zichlikni tugallash maqsadida olib borilayotgan tadbirlar tizimida yangi yerlarning o'zlashtirilishi asosiy o'rinda ekanligi, ayrim rayonlar uchun bu nafaqat yupanch va tasalli, balki hayotiy zarurat ekanligi ko'rsatilgan [4].

Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar va tadqiqot ishlarida O'zbekistondagi aholini ko'chirish siyosati masalasi Sovetlarning umumittifoq aholini ko'chirish siyosatini tahlil etishga bag'ishlangan bir qator asarlarda ham ko'chirish siyosati yaxshi yoritilmagan. Bu davrda yaratilgan asarlar kommunistik mafkura ruhida yaratilgan bo'lib sovetlarning aholini ko'chirish

siyosati umumiy tarzda ko'rib chiqilgan. O'zbekistondagi aholini ko'chirish jarayoni to'liq holatda yoritilmagan. Lekin, shunga qaramasdan ushbu asarlar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, aholini ko'chirish siyosatini o'rganishga yordam beradi. Ularda O'zbekiston SSR, xususan, Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi aholi ko'chirish masalasi bevosita yoritilmagan. O'zbekistonda amalga oshirilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati sovet davrida yaratilgan asarlarda tadqiqot ishlarida maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Mustaqillik yillarida o'tmish tarixni haqqoniy va xolisona o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu davrdagi tadqiqot asarlarida O'zbekiston va horijdagi noyob arxiv hujjatlari ilk bor ilmiy iste'molga olib kirilgan.

R.T. Shamsutdinovning asarida 1929-30 - yillarda birgina Andijon okrugidan 6820 ta xo'jalikning boshqa hududlarga ko'chirilganligi, shundan 2400 xo'jalikning shu okrugning o'zidagi o'zlashtirilmagan joylarga, 2920 xo'jalikning Toshkent, Samarqand, Zarafshon va Surxondaryo okrugalariga, 1500 xo'jalikning Ozarbayjon va Tojikiston Respublikalariga ko'chirilganligi haqida ma'lumot berilgan [5].

Mustaqillik yillarida sovet davrida amalga oshirilgan agrar siyosat tarixi, aholini ko'chirish orqali yangi yerlarni o'zlashtirilishi bilan bog'liq jarayonlar, jumladan barpo etilgan yangi aholi manzillarining shakllanishi masalalarini yoritib beruvchi tadqiqotlar o'tkazildi. Xususan, Z.Ashirboyeva B.Botirova, H.Xushvaqto'v, B.Rizayev, B.Abbasov, Sattarov A.M. kabi tadqiqotchilar o'zlarining izlanishlarida yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya masalalari hamda aholini ko'chirish muammolarini yangicha tafakkur ruhida, zamonaviy yondashuv va metodologiya asosida yoritib berdilar. Biroq mazkur izlanishlarida Farg'ona vodiysi viloyatlari aholisining 1920-1930-yillarda yangi yerlarni o'zlashtirish va ko'chirish tarixi alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan [6-11].

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqotning davriy chegarasi sifatida 1920 - 1930 - yillar oralig'i belgilandi. Mazkur davr XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq Farg'ona vodiysida aholini ko'chirish siyosatini amalga oshirilishi bilan tafsiflanadi.

Sovetlarning 1920-1930-yillarda O'zbekistonda, xususan, Farg'ona vodiysida amalga oshirgan ko'chirish siyosatini tadqiq etishda metodologiya o'ziga xos ilmiy yondashuvlarni talab etildi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-tahliliy, huquqiy-tahliliy, iqtisodiy va sotsiologik yondashuvlarga asoslangan. Maqolada Farg'ona vodiysidagi ko'chirish siyosatining mahalliy aholi hayotiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash uchun arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va mahalliy gazetalardan foydalanildi [5-16].

Tahlil va natijalar muhokamasi. Ko'chirish siyosatining amalga oshirishga huquqiy - me'yoriy asoslar XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda ko'chirish siyosatini amalga oshirish uchun Sovet Ittifoqi tomonidan bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Bu hujjatlar

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynagan.

1. O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati 1925 – yil 10 – apreldagi SSSR MIK Prezidium qarorining “SSSR MIK qoshida Butunittifoq Ko'chirish Komitetini tashkil etish haqida” 3 – moddasi hamda 1927 – yil 21 – fevraldagi O'z SSR MIK XKS ning “O'z SSR da Respublika ichkarisida aholini rejali ko'chirishlarning ochilishi haqida” gi 33 – sonli qarorining 270 – moddasi asos qilib olindi.

2. Aholini ko'chirish siyosati haqidagi dastlabki ma'lumotlarni 1925 – 41 – yillar oralig'ida e'lonqilingan qonun hujjatlari, gazeta va jurnallardagi chaqiriq, tashviqot harakteridagi maqolalardan olish mumkin.

3. 1928 – yil 15 – dekabrda SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining IV – chaqiriq 4 – sessiyasida qabul qilingan “Yer tuzish va yerdan foydalanishning umumiy asoslari haqida”gi qarorining 4 – bandida aholini ko'chirish siyosatining maqsad va vazifalari, ko'chirish tadbirlarining tashkiliy jihatlari, ko'chiriladiganlarga beriladigan imtiyozlar, ularga yer ajratib berish tartibi va me'yori ko'rsatilgan.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati Sovet Ittifoqining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari bilan bog'liq bo'lib, bu siyosat bir nechta asosiy sabablar tufayli amalga oshirilgan. Ular quyidagilarni o'zichiga oladi:

a) Yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta mustaqilligini ta'minlash, demografik keskinlikni yumshatish

b) **Milliy va etnik siyosat:**

– Sovet Ittifoqining milliy siyosati doirasida turli millat vakillarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish amalga oshirildi. Bu orqali: mahalliy millatlarning madaniy va diniy mustaqilligini zaiflashtirish va turli millatlarni aralashtirish orqali qarshilik ko'rsatish imkoniyatlarini cheklash maqsad qilingan.

c) **Qishloq va shaharlar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish:**

– Qishloq hududlaridan ishchi kuchini shaharlarga ko'chirish orqali shahar va qishloq aholisining daromadlarini tenglashtirishga harakat qilingan. Bu esa sanoatni rivojlantirishga yordam bergan.

d) **Aholi zichligini kamaytirish:**

– Ayrim hududlarda aholi sonining haddan tashqari ko'pligi iqtisodiy va ekologik muammolarni keltirib chiqargan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun aholini boshqa mintaqalarga ko'chirish amalga oshirilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sovet davrida yaratilgan asarlarda O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati shunchaki juda tor doirada tilga olingan. Bunga misol qilib O.B.Jamolov asarida Farg'ona vodiysining aholi zichligi yuqori, ekin maydonlari yetarli bo'lmagan paxtachilik rayonlaridan 1928-29 – yillarda Mirzacho'l, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon

okruglariga 2600 xo'jalikning, 1929-30 - yillarda 7600 xo'jalikning ko'chirilganligi shunchaki qayd etib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu maqolada Sovetlarning 1920-1930 yillarda O'zbekistonda amalga oshirgan ko'chirish siyosati, uning maqsad va mohiyati Farg'ona vodiysi misolida ko'chirish siyosatining amalga oshirishga huquqiy - me'yoriy asoslar va aholini ko'chirish siyosatining ijtimoiy iqtisodiy sabablari o'rganildi. Bu jarayonda huquqiy-me'yoriy asoslar qishloq xo'jaligi va sanoatning davlat nazoratiga o'tishi, minglab oilalarning ko'chirilishi va iqtisodiy ahvolining og'irlashishi, milliy madaniyat va urf-odatlarining buzilishi, sovet davlatining o'z fuqarolari ustidan siyosiy nazoratni kuchaytirishi kabi oqibatlariga olib kelgan.

Ko'chirish siyosatining oqibatlarini quyidagi sabablarda ko'rishimiz mumkin:

- **Ijtimoiy o'zgarishlar:** Aholining urf-odatlarini va turmush tarzi buzildi. Ko'plab oilalar qiyinchiliklarga duch kelgan;
- **Qashshoqlik va yetishmovchilik:** Ko'chirilgan aholi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qiyin sharoitlarga tushib qolgan;
- **Demografik o'zgarishlar:** Milliy va hududiy demografik tuzilmalar keskin o'zgarishga uchragan;
- **Davlat nazorati kuchayishi:** Sovet hukumati iqtisodiy resurslar va aholi ustidan to'liq nazorat o'rnatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -B. 4.
2. Botirova B.N. O'zbekistonda o'tkazilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati (1926 - 1941 - yillar) Tarix fan. Nomz...diss - Toshkent, 2010. -B. 6.
3. Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления коммунистической партии и советского правительства 1927-35 гг. /Сост. Кузмина Л.Ф., Полетаев В.Е., Томашевич Ю.У. - Москва: АН СССР, 1957. С. 100-101.
4. Botirova B.N. O'zbekistonda o'tkazilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati (1926 - 1941 - yillar) Tarix fan. Nomz...diss - Toshkent, 2010. -B. 7.
5. Шамсудинов.Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклштириш сиесати ва унинг фожийали окибатлари - Тошкент: Шарк, 2001. - Б.105 - 106.
6. Аширбоева З.Қ. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши: Тарих фан. ном.... дисс. - Тошкент, 2008.
7. Ботирова Б.Н. Ўзбекистонда ўтказилган советларнинг аҳолини кўчириш сиесати (1926-1941 йй.): Тарих фан. ном.... дисс. - Тошкент, 2010. -Б. 157.
8. Хушвақтов Ҳ.О. Мирзачўлни ўзлаштириш учун аҳоли кўчирилиши ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи (1946-1970 йй.): Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. автореф. - Тошкент, 2017. -Б. 24.

9. Ризаев Б.Н. Ўзбекистонда 1950-1970 йиллари янги ерларни ўзлаштириш жараёнида аҳолини кўчириш сиёсати (Бухоро области мисолида): Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. –Б. 27.

10. Аббасов Б.Б. 1946-1965 йилларда Ўзбекистон қишлоқларидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларда миграцион омилнинг роли (Фарғона водийси материаллари асосида): Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2022. –Б. 150.

11. Sattarov A.M. O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida, 1946-1991-yillar) Tarix fan. Fal. Dok. (PhD) diss. avtoref – Farg'ona, 2023. –Б. 15.

12. Karimov, S. "O'zbekistonda kollektivlashtirish va uning oqibatlari" Toshkent: Fan, 1998.

13. Bekmurodov, U. "Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan agrar siyosati" Toshkent: Sharq, 2003.

14. Madrahimov, T. "Farg'ona vodiysida dehqon xo'jaliklarining kollektivlashtirilishi" O'zbekiston tarixi jurnali, 2002, №3.

15. Rasulov, R. "Sovet davrida agrar siyosat va aholi migratsiyasi" Toshkent: Universitet, 2010.

16. O'zbekiston Milliy Arxivi fondi, 1920–1930 yillardagi hujjatlar.

INNOVATIVE
WORLD